



## XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING QARORI

2025-yil 28-yanvar

VII-5-10-7-96-K/25

Kattaqo‘rg‘on tumani

### **Tuman Adliya bo‘limining tumanda 2024-yilda norma ijodkorligi hamda huquqni qo‘llash amaliyoti yuzasidan amalga oshirgan ishlari to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5415-sonli Farmoni va 2018 yil 13-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3666-sonli qarori ijrosini ta’minlash hamda tuman Adliya bo‘limi boshlig‘i B.Baymuradovning axborotini muhokama qilib, «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 24-moddalariga muvofiq VII chaqiriq xalq deputatlari tuman Kengashining beshinchi sessiyasi

#### **QAROR QILADI:**

1. Tuman Adliya bo‘limi boshlig‘i B.Baymuradovning “Tumanda 2024-yilda norma ijodkorligi hamda huquqni qo‘llash amaliyoti yuzasidan amalga oshirgan ishlari yuzasidan axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Adliya bo‘limi (B.Baymuradov)ga:

-O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining Farmon hamda qarorlari, shuningdek yangi qabul qilingan normativ-huquqiy xujjatlarning mazmun mohiyati va ahamiyatini aholiga va ijrochilarga yetkazish yuzasidan targ‘ibot-tashviqot tadbirlari tashkil etish;

-huquqni qo‘llash soxasida nazorat tadbirlari o‘tkazib borish, inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, o‘z vakolatlari doirasida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish;

-davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va metodik ta’minlash choralari ko‘rsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Djurayev) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (N.Jo‘lmatov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV  
JAMSHID  
TULKINOVICH